Shunday qilib sahronishin cho'lda o'tiruvchi, yashovchi (125-b), (128-b), qarajo'nishini (153-b), sarhadnishin (77-b), dehnishin (87-b), dorug'anishin (120-b), shahnishin (170-b), podshohnishin (218-b), hokimnishin kabi so'zlar qo'llanilib – nishin o'tir so'zi, asosan ot turkumiga tegishli so'zlar bilan qo'shib qo'shma murakkab sifatlar va bazan ot turkumiga doir so'zlar yasaganini ko'ramiz. Nishastan – nishin so'zi o'zbek tilida o'tirmoq –o'tir, qo'nmoq –qo'nib kabi ma'nolarda ishlatiladi. Fors tilida esa faqat nishast – o'tiridi degan so'z ishlatiladi. Zadan – urmoq fe'lining hozirgi zamon asosi "zan" so'zi ham quyidagi so'zlar tarkibida kelib sifatga va bazan ot turkumiga doir so'zlar yasaydi. – turkman hazorasi anvo beadabliklar va rakzanliklar qilib edilar (144-b), kordzan (73-b), rakzan (177-b), zarbzan (241-339-b), farzandi zarbzan (335-b). Yuqorida ko'rsatilgan "zan" -ur so'zi ham o'zbekcha so'zlar tarkibida emas balki faqat forscha + forscha, forscha + arabcha, qolipida ishlatilgan.

Ayrim so'zlarda fel+fel qolipida kelib sifat turkumiga doir so'zlar yasaydi. Masalan, notavaonbin va kajxulq kishi edi (143-b). Ushbu jumlada tavonistan – kuchi yetadigan, ishlarini bajara oladigan, qo'lidan ish keladigan manoda fos tilida ishlatiladi. Tavonistan fors tilida modal fe'l sifatida qo'llaniladi tavon ushbu fe'lning hozirgi zamon asosi. Bu so'zga sifat yasovchi no- qo'shimchasi qo'shib notavon

kuchsiz, ish qilolmaydigan, nogiron kabi sifat ma'nosini anglatuvchi so'z sifatida ishlatiladi, bin so'zi esa didan- ko'rmoq felining hozirgi zamon negizi hisoblanib notavonbin yomon qarash, badbin yomonlikni ko'zlovchi ma'nolari qo'llangan.

Asarda ko'p qo'llangan, ko'proq sinonim ma'nolarda ishlatilgan taroshidan – yo'nmoq, tozalamoq, tekislamoq kabi ma'nolarni anglatib, qo'shma fe'llar tarkibida ot, sifat ma'nolarini anglatuvchi so'zlar tarkibida qo'llaniladi. "Tarosh" so'zi ham o'zbekcha, ham forscha so'zlarga qo'shib ayrim hollarda so'zlar alohida, alohida so'z sifatida ishlatilgan. Masalan, yerini yakpora toshdin tarosh qilgaylar (312-b),

- Quyrug'i hujralarida muazzam toshdin butlar tarosh qilibdurlar (316-b). O'zbekcha so'zlar bilan kelganda forscha sifatdosh, o'tgan zamon sifatdoshi ma'nosida ham qo'llangan. Masalan:

- Ulug'larning imoratlarini takalluf bila taroshida toshdin qilibdur (308-b), bu gapda taroshida so'zi yo'nilgan, poklagan, qirqgan ma'nolarida ishlatiladi.

Forscha+forscha qolipida yorilgan so'zda kasb egasini bildiruvchi ma'noda berilgan.

- Ustad shoh Muhammad sangtaroshga buyurdikim (113-b)

- Yakpora toshdin sutanamo tarosh qilg'aylar (313-b)

- Bu imoratlar tamom sangi taroshindandur (313-b)

Taroshiida so'zi ham o'zbekcha, ham forscha so'zlar bilan kelib hamma fe'llar kabi, yoki forscha o'tgan zamon sifatdoshi sifatida juda ko'p so'zlar tarkibida kelib, murakkab sifat va ot ma'nosini anglatuvchi so'z sifatida qo'llangan.

Asarda ko'p qo'llangan so'zlarda andoxtan –otmoq, tashlamoq, uloqtirmoq, solmoq ma'nolarini anglatuvchi andoz – ot, tashla, uloqtir, sol ma'nolarini anglatuvchi so'z hisoblanadi. Masalan – otmoq ma'nosida; - Tufakandozlar ham tubang otmoqqa bisyor jalodat ko'rsatib yaxshi otdilar (219-b). Bu gapda yozuvchi tufakandoz so'zini tufak otmoq so'zi bilan fors va o'zbek tilida qo'llangan.

Yoki solmoq ma'nosida quyidagi gapda ushbu so'zni qo'llaganini ko'ramiz. – Arzg'a yettikim, cherik eli Behra elig'a besarlig' va dastandozliqlar qiladurlar (206-b). Bu gapda qo'l solmoq + dast andoz ya'ni davlat mablag'larini o'g'irlab oluvchi

ma'nolarida ham qo'llangan. Bu kabi so'zlar karkandoz (271-290-b), dastandoz (165-b), tirandoz (182-b), va boshqalar juda ko'p joyda qo'llangan.

Asarda yuqoridagi qo'shma so'zlarda qo'llangan forscha fillar bilan juda ko'p sermahsul va kammahsul forscha fe'l turkumiga doir so'zlar qo'shma so'zlar tarkibida qatnashib asosan sifat va ba'zan ot bajargan ma'nolarda ham ishlatilgan.

Xulosa bu kabi fe'l turkumiga tegishli so'zlarning aksariyati hozirgi o'zbek tilida kamroq uchraydi. Asarda yuzdan ortiq forscha fe'llardan yasalgan qo'shma sifatlar mavjud. Bu Zahiriddin Muhammad Boburning faqat turkiy so'zlarni emas, balki forscha so'zlarni ham mukammal bilgan va ularni so'z yasalishiga to'g'ri e'tibor bergan.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Abdusamatov M. "Fors tili", Toshkent. "O'ituvchi" 2007-yil*
2. *Xalilov I "Fors tili", Toshkent. "O'ituvchi" 2007-yil*
3. *Shamsiyev P "Boburnoma" Toshkent. "Yulduzcha" 1989-yil*
4. *Kollektiv Farhangi zaboni tojiki I –tom Moshva, Ishustvo, 1969.*
5. *O'zbek tilining izchil lug'ati O'ZME 2006-yil*
6. *R.Jumaniyozov "Eski o'zbek yozuvi" Toshkent 2013-yil.*
7. *F.A.Abdurahmonov Sh.Sh. Shoabdurahmonov "O'zbek tili gramatikasi" 1985 yil.*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10783451>

## KURASHCHILARNI TEZKORLIK KUCH SIFATLARINI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

I.R. Turakulov

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti PhD

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada kurashchilarning tezkor kuch sifatlarini rivojlantirishda harakatli o‘yinlardan samarali foydalanish to‘g‘risida zamonaviy pedagogik uslublar haqida fikir yuritilgan.*

**Kalit so‘zlari:** kurashchi, tezkorlik, kuch, mashg‘ulotlarni rejalashtirish, sportchining bilish faoliyati, pedagogik baholash.

### ANNOTATSIYA

*В статье рассматриваются современные педагогические методы эффективного использования игр-действий в развитии быстро-силовых качеств борцов.*

**Ключевые слова:** борец, ловкость, сила, планирование тренировки, познавательная деятельность спортсмена, педагогическая оценка.

### ABSTRACT

*This article discusses the modern pedagogical methods of effective use of action games in the development of quick strength qualities of wrestlers.*

**Key words:** wrestler, agility, strength, training planning, athlete’s cognitive activity, pedagogical assessment.

**KIRISH.** Respublikamiz mustaqillik sharofati va kurash mutasaddilarining tinimsiz sa'y-harakatlari natijasida kurash jahonda yangi sport turi sifatida taraqqiy topdi. "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 04.11.2020 yildagi PQ-4881-sonli qarorlariga ko'ra hozirgi kunda yoshlar orasida kurashni yanada rivojlantirish hamda ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodga milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va jahon sporti maydonlarida yuqori natijalarga erishishni ta'minlash maqsadida qabul qilindi. Bu qaror kurash milliy sport turimizni mamlakatimizda va jahonda yanada ham rivojlantirishga, ommaviyligini oshirishga asos bo'lmoqda. Davlatimiz va xalqaro kurash assotsiatsiyasining bevosita qo'llab quvvatlashi natijasida "Kurash" xalqaro sport turi jahonda keng e'tirof etilmoqda. "Kurash", "halol", "ta'zim", "to'xta", "yonbosh" kabi atamalar esa xalqaro sport so'z va iboralar qatoridan mustahkam o'rin egalladi. Kurash azal-azaldan olijanoblik, mardlik va halollik timsoli, xalqimizning bir necha ming yillik tarixiga ega milliy-madaniy merosining bir qismi va bebaho boyligi hisoblanadi.

Mamlakatimiz va xorijiy olimlarning adabiyotlarida bu mavzu muammolari bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. Bulardan quyidagi adabiyotlarni aytish mumkin. N.A.Tastanovning F.A.Kerimovning Z.A.Bakiyev "Sh.A.Abdullayev Chet el olimlardan V.M.Zasiorskiy, A.D.Novikov, L.P.Matveyev, V.N.Platonov, N.G.Ozolin, I.I.Alixanov, P.F.Matrushak kabi olimlar kurashchilarni rivojlantirish to'g'risida bir qancha tatqiqotlar o'tkazib maxsus adabiyotlarda fikr va mulohazalar aytib o'tilgan.

Ushbu soha bo'yicha ko'p sonli olimlar va tajribali murabbiylar yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish yuqori samara beradi, jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlar, jumladan milliy xalq o'yinlari asosiy vositalardan biri hisoblanadi, deb ta'kidlaydilar. Yuqorida sanab o'tilgan va boshqa manbalarni adabiy tahlil qilinganda kurashchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda boshqa vositalar qatorida harakatli o'yinlardan foydalanish usul va uslubiyatiga e'tibor qaratib kelganlar, lekin yosh kurashchilarni jismoniy

qobiliyatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni qo'llashda o'yinlarning tasnifi bo'yicha juda kam ma'lumotlar berilgan. Bizning fikrimizcha shu boisdan ham bugungi kunda yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakali o'yinlarni qo'llash jarayonini takomillashtirish zaruriyatiga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Bugungi kunda yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish, qo'llaniladigan harakatli o'yinlarni saralash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Biz pedagogik tajriba davomida tajriba guruhida yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning samarasini aniqlab, zarur tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida mashg'ulotlar o'quv rejasiga harakatli o'yinlarni kiritdik. Bunda harakatli o'yinlarni jismoniy sifatlarning rivojlantirish uslub va uslubiyatlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanladik. Mashg'ulotlarni quyidagi metodika asosida olib bordik:

1. Har bir mashg'ulotlarning tayyorlov qismida estafetali harakatli o'yinlar keng qo'llanildi. Maqsad kurashchilarning tanasini va barcha mushak tizimini qizdirishva ularning tanasini asosiy qismga tayyorlash.

2. Harakatli o'yinlar mashg'ulotlarning vazifasidan kelib chiqib belgilandi.

3. Harakatli o'yinlar musobaqa tarzida tashkil etildi. Maqsad kurashchilarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarni oshirish.

4. Mashg'ulotlarning yakunlovchi qismida diqqatni rivojlantirivchi o'yinlardan foydalanildi.

5. Harakatli o'yinlarni har bir jismoniy sifatlarni rivojlantirishiga alohida e'tibor qaratdik va oldindan rejalashtirib har bir o'yinga alohida vazifalar qo'ydik.

Xulosa qilib aytganda maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni e'tirof etishga asos bo'la oladiki, yosh kurashchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida harakatli o'yinlarning maqsadli qo'llanishi ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammosini hal qilishga imkon yaratib, yosh kurashchilarning harakat tayyorgarligida harakatli o'yinlarni o'quv-mashg'ulot jarayoniga tadbiiq etish uchun harakatli o'yinlarni shiddati va hajmi me'yorlarini aniqlash va ularni qo'llash metodikasini



ishlab chiqish zarur. Harakatli o'yinlarlar yosh kurashchilarni mashg'ulotga bo'lgan qiziqish va istaklarini oshishga xizmat qiladi. Biz tomondan qo'llanilgan uslub va vositalar, yosh kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashda va sportda yuksak natijalarga erishishda katta yordam berishiga ishonamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2018-yil 5-mart.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924 sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2020 yil 24 yanvar.*
3. *Tastanov N.A. "Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati" Darslik.T.; 2017 yil.*
4. *Salohiddin Rashid o'g'li Qodirov Yosh kurashchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan samarali foydalanish, Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-941-949 Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 941 www.ares.uz*
5. *Kerimov F.A. Kurash tushaman. Toshkent 1990 y. 174 b.*
6. *Kerimov F.A. «Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti» Toshkent, 2001y.*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10783486>

## QIYOSIY FRAZEOLGIK BIRLIKLAR NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA

**Xalilova Zilola Farmonovna**

NavDPI tayanch doktoranti.

[zilolaxalilova@inbox.ru](mailto:zilolaxalilova@inbox.ru)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada qiyosiy frazeologik birliklar, ularning ma’no tarkibi va qiyosiy, leksikografik tahlili, maqol va matallarda qayd qilingan frazeologik birliklar tavsifi va ikki til orasidagi yaqinlik, uyg’unlik va farqlilik munosabati haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** qiyosiy, tafakkur, maqol, matal, ibora, tavsif, tanbeh, kinegramm, muloqot, ko‘chma ma’no, birlik, neologizm, nutq.

### ANNOTATION

*The article talks about comparative phraseological units, their meaning structure and comparative, lexicographical analysis, description of phraseological units mentioned in proverbs and proverbs, and the relation of closeness, harmony and difference between two languages.*

**Key words:** comparative, thought, proverb, saying, phrase, description, reprimand, kinegram, dialogue, figurative meaning, unity, neologism, speech.

### KIRISH

Frazeologiyaning vazifalariga frazeologik birliklarni qarama-qarshi solishtirish ham kiradi. Turli tillardagi tizimlar qiyosiy frazeologizmlar ham frazeologik holga keladi. Bu ko‘rinish taqqoslashlar ham deyiladi. Qiyosiy frazeologizmlar nisbatan bir qator takrorlanish xususiyatiga ega. Odamlar va ularning jismoniy va psixologik

holatini aks ettiradi. Qiyosiy frazeologizmlar qanday kommunikativ vazifalarni bajaradi? Bu yerda to'g'ri javoblarni misollar bilan tushuntiramiz. Til muloqot darajasida juda muhim vazifalarga ega: birinchidan, ular fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi.

"Inson tafakkurining umuminsoniy qonunlariga" asoslangan o'xshashlik munosabatlari, masalan. quyondek yuragi bor; chumoli/ari va hokazo kabi mehnatkash. Ular bizga yordam beradi lingvistik mazmunning noto'g'ri talqin qilinishini kamaytirishga va samarali bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Og'zaki tilda muloqotni noaniq bo'lib qolmasligini va ongli ravishda turli talqinlarga tushunishga imkon beruvchi soha qiyosiy frazeologiya uchun alohida o'rin tutadi.

Frazeologizmlar biror narsani boshqa narsaga o'xshatish uchun (... farqli o'laroq...metaforadan). Taqqoslash ob'ekti va taqqoslash o'lchovi o'rtasidagi mazmunli munosabat izohiga asoslanadi. Uning asosiy tuzilishi nimadan iborat?

Umuman olganda, asosiy tuzilma "boshlang'ich tushuncha" frazeologik muhit hukmronlik qiladi. Qiyosiy qo'shma yoki – zarracha qat'iy taqqoslash masalan: **Elbek-kuchli daraxt kabi**. Qanday frazeologik xususiyatlarga ega?

Qiyosiy frazeologizmlar frazeologizmlar kabi bir xil xususiyatlarga ega bo'lib ko'pgina turg'un so'z birikmalari, ya'ni polimorfizm, polileksiklik, kuchli barqarorlik va idiomatiklikka tayanadi. Quyidagi misollar yordamida bir nechta elementlarni tushuntirishimiz mumkin:

- **pichoqsiz odam dumsiz itga o'xshaydi** (maqol yoki matal kabi).

Bu frazeologizmning turg'unligiga kelsak, ayrim turg'un taqqoslashlar juda barqaror va ularning tarkibiy qismlarini almashtirishga, kengaytirishga yoki o'tkazib yuborishga yo'l qo'ymaymiz. Uning idiomatikligi qiyosiy frazeologizmning umumiy ma'nosi bir-biridan farq qilmasligini anglatadi. Qisman idioma. Bunday holda, motivatsiya va tasvirning semantikasi haqida savollar paydo bo'ladi. Idiomatiklik har doim ham mavjud emas, lekin ko'proq yoki kamroq idiomatik bo'lgan taqqoslashlar mavjud bor. Bu shuni ko'rsatadiki, taqqoslashlar birikmalar sifatida ishlatilishi mumkin, masalan, qisman idiomalar iloji boricha ma'nosiz ko'rinishi

mumkin. Ayniqsa, badiiy adabiyotda, jurnalistikada, shuningdek, kundalik suhbatlarda mavjud bo'lgan o'zgarishlarni ko'rsatadi. Taqqoslashlar, Kontrastiv tilshunoslik uchun frazeologik taqqoslashlar alohida ahamiyatga ega. Ma'nosi, chunki ular madaniyatlar o'rtasidagi farq va o'xshashlikni aks ettiradi. <sup>1</sup> (Burger, 1982: 35). Frazeologiyani bu turkum kinegrammalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bular frazeologizmlardir bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan ikkita tasvir.

masalan, **Ahmad domlani ko'rganimda shlyapani ko'tardim.**

Ushbu kinegramning to'g'ridan-to'g'ri harakati birinchi o'qish va kimgadir shlyapasini ko'taradi bu odam bilan salomlashayotgan o'tkazilgan ma'no va shu bilan birga sharaf va izhor belgisi ikkinchi o'qish ekanligini isbotlaydi.

Kinegrammalar aloqa jarayonida sheriklarning og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarini aks ettiradi. Bu tana tili yoki qo'llar va qo'llarning (imo-ishoralarning) "tili" bilan, yuzning (yuz ifodalari), tananing yuqori qismi (imo-ishoralar) va butun tana (proksemika, fazoviy hatti-harakatlar) ulangan. Kinegrammalar barqaror so'z birikmalaridir. Muloqot jarayoni haqida gapirganda, biz og'zaki va bir vaqtning o'zida og'zaki bo'lmagan hatti-harakatlar haqida ham ma'lumot beramiz.

Tildagi og'zaki bo'lmagan hatti-harakatlarni ushlab va e'tiborga olish *muloqotning* ikkala tomonini bir vaqtning o'zida amalga oshirishga imkon beradi ta'sirchanligini oshiradi. <sup>2</sup> (Burger, 1998: 44).

Ushbu tahlilda biz asosan vizual va akustik kanallarga e'tibor qaratamiz, og'zaki bo'lmagan muloqot, ya'ni harakatlar, imo-ishoralar, yuz ifodalari (nigohlar harakati, yuz ifodalari) til tushunchasi asosidir. Frazeologik ibora zahirasiining periferiyasi deb ataladigan narsa quyidagi tipik jumla qiymatlaridan iborat:

- Hikmatlar, masalan, "Yangi supurgi yaxshi supuradi".

**Har bir ishning boshlanishi qiyin. (Aller Anfang ist schwer).**

Maqollar nima? Har bir shaxs uchun frazeologizmlarning o'z gacha ma'nosi nutqda ifodalanadi: Maqollar, ular shaxsiy munosabatlar haqida o'z tajribalari va kuzatishlari bilan o'rtoqlashadilar va ijtimoiy hodisalarni tugallangan izoh shaklida jamlangan holda taqdim eta olishda shakllanadi. Biz har qanday vaziyat yoki hodisani

muayyan kontekstda tasvirlashimiz mumkin, shuning uchun ham maqollar hayotiy ko'rinishlar kabi moslashuvchanlikda izohlanadi. Maqolni ilmiy jihatdan qanday aniqlash mumkin? Turli xil qarashlar bor.

Ta'riflar: - Burger ularga quyidagicha ta'rif beradi: "Ular o'z-o'zidan tuzilgan jumlar bo'lib, ularni hech qanday leksika bilan aniqlab bo'lmaydi. Element kontekstga bog'langan bo'lishi kerak." <sup>3</sup> (Burger 2007: 108);

s. <sup>4</sup>Fleischer (1997: 76) maqollarni frazeologizmlar deb hisoblamaydi, ularni mikromatn deb biladi, lekin shunga qaramay, u frazeologizmlar bilan ko'p o'xshashliklarga ega ekanligini tan oladi; - Maqol "qisqa, ommabop didaktik tendentsiya va izohlangan gap shakli" <sup>5</sup> (Seiler, 1922: 3)

- Maqollar umumiy yoki hech bo'lmaganda hammaga ma'lum, qat'iy va doimiy ravishda tuzilgan jumladir. Qisqacha tuzilgan hayot qoidasi yoki umumlashtirilgan hayotiy tajribani o'z ichiga oladi. Ushbu ta'riflarni ko'rib chiqqandan so'ng, quyidagi asosiy xususiyatlarni aniqlash mumkin gapdan - gapning qisqa, turg'un shakli; - didaktik tendentsiyalar; - tasvir; - mashhurlik; - takrorlanuvchanlik va - metaforik ma'no. Burger qarashiga ko'ra, biz maqollarning uchta funksiyasini ajratamiz:

Maqollarning haqiqati mutlaq emas, balki qisman nisbiy, muayyan vaziyatlarga, hayot sharoitlariga va boshqalarga nisbatan tushunilgan. (Burger, 1998: 107).

- Ko'rsatma: Agar maqolning haqiqatini tan olsa, amaliy didaktik qadamdir.

Endi keng qo'llanilmaydi. Maqollar shunchaki "to'g'ri" talqin emas vaziyatlar, lekin bir vaqtning o'zida harakat uchun ko'rsatmalar, "tartibga solish" funksiyasi. Bu, ayniqsa, "nutq jarayoni"da tug'ilgan fikrlar haqida gapirganda nazarda tutilgan ifodadir. <sup>6</sup> (Burger, 1998: 110).

- Kontekst funksiyalari: Maqol tasdiq va harakat uchun tayanch sifatida ishlatilishi mumkin. Maqolning funksional sohasi". <sup>7</sup> (Burger, 1998: 112).

Maqolning boshqa frazeologizmlardan asosiy farqi nimada? Maqolning boshqa frazeologizmlardan eng muhim farqlaridan biri shundaki, maqol boshqa frazeologizmlardan farqli ravishda tugallangan gapdir. Boshqalar, ya'ni frazeologizmlar jumlada to'qilgan bo'lishi kerak. "Maqollar o'z mikromatnlarini

ifodalaydi. Ular til leksikasida nomlash birliklari sifatida saqlanmaydi va mavjud shuning uchun leksik birliklar kabi "qayta ishlab chiqarilgan" emas, balki boshqa mikromatnlar va qisman matnlar kabi ifodalanadi. <sup>7</sup> (Fleischer, 1997: 76).

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

- 20-asr boshlarida Yevropa va boshqa xalqlarning ommaviy emigratsiyasi. AQShda bir-biriga bogʻlangan. Bu erda koʻplab yangi maqollar paydo boʻlgan va oʻz davrida mashhur edi. Yevropa uchun nima yaxshi boʻlsa, AQSh uchun ham yaxshi hisoblanardi. Maqollar qanday vazifani bajaradi? Maqollar uchun quyidagi funksiyalarni oʻz ichiga olgan funksiyalar roʻyxati: ogohlantirish, ishontirish, dalil, tasdiqlash, tasalli berish, tinchlantirish, hukm qilish, tanbeh, bayonot, tavsif, tushuntirish, tavsif, asoslash va xulosa. Bular tuzilmaviy jihatdan oʻziga xos jumlar boʻlib, odatda shaklida deklarativ jumalarga ega. Oddiy gaplarni maqollardan ular ekanligi bilan farqlash mumkin. Har doim metaforik boʻlmagan va "yangi" tushunchalar emas, balki oʻz-oʻzidan ravshan shakllantirilgan ifodalardir. Burger tipik oddiy gaplar sifatida quyidagilarni keltiradi; hamma narsaning qiymati bor; narsalarni qanday boʻlsa, shunday koʻring. Otning feʼl bilan bogʻlanishi, shu munosabat bilan oʻzining haqiqiy maʼnosiga egaligini yoʻqotadi, toʻrtinchidan, imkon beruvchi qiyosiy frazeologizmlar xalqning lingvistik dunyo modelini idioma va matallar bilan birgalikda ishlab chiqish, beshinchi Kinegramlar anʼanaviy, ogʻzaki boʻlmagan xatti-harakatlar sifatida tilda olingan va izohlangan, oltinchidan, muntazam formulalar, ularsiz aloqa sheriklari oʻrtasida aloqa mavjud qiyinroq va nihoyat dolzarb formulalar, maqollar va oddiy gaplar, urgʻu bilan, maqol tadqiqi frazeologik tadqiqqa berilganligi.

### **NATIJALAR**

Ushbu koʻrib chiqilgan birliklar barcha til oʻrganuvchilar uchun moʻljallangan. Nemisshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik yoʻnalishlari boʻyicha magistratura talabalari boshqalar qatori, doktorantlar va frazeologiyani ilmiy jihatdan oʻrganishni xohlovchilar uchun, istaganlar uchun tildagi turgʻun soʻz birikmalarining maftunkor sohasiga qiziqish bildiradi. Tilning soʻz boyligini boyitish faqat til orqali amalga oshmaydi, chet tillardan oʻzlashtirib, yangi soʻzlarni (neologizmlarni) shakllantirish,

ayrim soʻzlarga nisbatan maʼno oʻzgarishi, shuningdek, erkin sintaktik boʻlganligi sababli, soʻz birikmalari, soʻz turkumlari, maxsus maʼnolarda "qatʼiy" va shuning uchun lugʼat tarkibiga kirishi mumkin."

Frazeologizmlar - turgʻun sintaktik soʻz birikmalari, ularning maʼnosi alohida leksema shakllarning maʼnolariga umuman yoki qisman ergashmaydi, aksincha uzaytiriladi. Ayrim soʻzlarning maʼnosi maʼnoga mos kelmaydi. Agar maʼlum soʻzlar bir-biri bilan tez-tez ishlatilsa, semantik muvofiqlikni hisobga olish kerak boʻlsa, bogʻlanish soʻzining yangi umumiy maʼnosi paydo boʻlishi mumkin. Ularning umumiy maʼnosi, leksiklashgan birlik sifatidagi tuzilgan alohida soʻzlarning maʼnolari yigʻindisiga mos kelmaydi. Frazeologik maʼno ning tom maʼnosi bilan qiyoslanadi. Soʻz birikmasi maxsus yoki boshqacha va yangi bir butunlikdir.

Masalan:

1. koʻplik
2. koʻchma maʼno
3. foydalanishdagi kuch

Ushbu formulada asosan semantik, ammo morfosintaktik emas mezonlar hisobga olingan.

### **Muhokama**

Frazeologiya yosh ilmiy kichik fandır. Rus tilshunoslari 19-asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. U frazeologiya nazariyasiga asos solgan. Charlz Balli 1909 yilda nashr etilgan kitobi bilan ushbu tilshunoslikni rivojlantirdi. "**Traité de stylistique française**" ga ega edi. Eng muhimi, uning semantik oʻziga xosligini taʼkidlaydi. Nemis tilshunosligi frazeologiyani leksikologiya deb hisoblaydi. Faqat 1970-yillarda tadqiqotlar faollashdi. Birinchi sovet tilshunosi nemis frazeologiyasining umumiy taqdimotini taqdim etdi Chernisheva. Frazeologiyaning asosiy xususiyati uning takrorlanishi edi. Frazeologizmlar komponentlarning birlik aloqasi natijasi sifatida qaraladi. Eng muhim nemis tilshunoslari orasida Xarald Burger, Wolfgang Fleysler, R.Klappenbach va boshqalar tadqiqotlar olib bordilar. Frazeologizmlarning tasnifi ayniqsa murakkab koʻrinadi. Koʻpchilik olimlar turli xil tasniflash boʻyicha oʻzlarining kontseptsiyalarini ishlab chiqdilar. Mezonlar oʻz hissasini qoʻshgan va koʻpincha yangi atamalarni kiritish orqali bir narsaga erishishga harakat qilgan. Tartibni yaratish uchun

(E. Agricola, I.I.Černyševa, U.Fix, A.Rothkegel). Frazologiya atamasi faqat tilshunoslikka tegishli emas. Frazologizmlarni o'rganish bilan shug'ullanadigan kichik fan, balki muayyan til frazeologizmlarining izchilligidadir. Yunoncha idioma, o'ziga xoslik, o'ziga xoslik atamasi asosida idioma, idioma, idiomatizm kabi atamalar paydo bo'ldi. 17-asr oxiridan beri nemislar o'ziga xos dialekt sifatida qayd etilgan. "Idiomatiklik iborasi insonning o'ziga xos xususiyatini belgilash sifatida, ehtimol, 1950-yillarda nemis tilida mashhur bo'lgan rus idioma va ingliz tiliga asoslangan idiomatiklik paydo bo'ldi (Pilz, 1978, 772).

Eng keng tarqalgani frazeologizm, turg'un so'z birliklari, iboralardir so'z birikmasi, so'z turkumi, nutq shakli, idioma, frazema, frazeoleksema va turg'un sintagma qo'llanilgan.

a) to'liq idiomatik iboralar:

Ayrim so'zlar endi to'g'ridan-to'g'ri va ko'chma ma'nosini saqlab qolmaydi. So'zlarning alohida birikmasining ma'nosi aniq emas. Ular noaniq va noyob komponentlar ko'pincha bu erda paydo bo'ladi. Ayrim so'zlarning ba'zilari o'zlarining erkin, so'zma-so'z ma'nosini saqlab qoladilar, ya'ni kamida turg'un bog'lanishning bir komponenti to'g'ridan-to'g'ri tushunilishi kerak. Ular shaffof.

karavotda qolmoq (kasal to'shakda yotmoq) – karavotda mixlanmoq

Qon bo'lib- suvdek terlash (ko'p terlash)

v) noidiomatik frazemalar

Bu so'z birikmalarining idiomatikligi yo'q, ammo ular bir-biridan farq qiladi erkin so'z birikmalaridan farq qiladi, chunki, masalan, komponentlarning tartibi belgilangan. Polileksiklik va takrorlanuvchanlik.

## **XULOSA**

Frazeologiya frazemalar haqidagi nisbatan yosh fan sifatida haqli ravishda markaziy fan hisoblanadi. Qaldirg'och yozning bir qismi bo'lgani kabi frazeologizmlar ham kundalik tilimizning bir qismidir. Frazologizmlar bizni tilimizni obrazli tarzda ifodalashdagi ahamiyati o'rinlidir. Birinchidan, o'quvchilar idiomalar va yutuqlardan



foydalanishlari mumkin. Ikkinchidan, bizda tilning so‘zlashuvda qiyosiy fikrlar bilan izohlanishini birliklar tasvirlaydi va xulosalaydi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Duden. *Das große Wörterbuch der deutschen Sprache*. 3.Auflage. Mannheim, 1999. S. 2922.
- [2] Fleischer, Wolfgang: *Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache*. Leipzig, 1982. S. 8f.
- [3] Vgl. Brockhaus *Enzyklopädie*. 21. Auflage. Leipzig, 2006. S. 427.
- [4] Meyers *Lexikon Online*. <http://lexikon.meyers.de/meyers/Redensart>
- [5] Fleischer, Wolfgang: *Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache*. Leipzig, 1982. S. 10.
- [6] Fleischer, Wolfgang: *Zamonaviy nemis tilining frazeologiyasi*, Leyptsig, 1982, 35-bet.
- [7] Klappenbach und Malige- Klappenbach, Ruth und Helene: *Studien zur modernen deutschen Lexikographie. Auswahl aus den lexikographischen Arbeiten*. Hsgb. Von Werner Abraham. Amsterdam, 1980. S.176.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10783497>

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE INDIVIDUAL SITUATION IN THE STUDENT GROUP

**Sarvinoz Haydarova**

teacher of Termiz State University

e-mail: [hsarvinoz52@gmail.com](mailto:hsarvinoz52@gmail.com)

### ANNOTATION

*The article examines the socio-psychological factors affecting the state of the individual in the student group. Empirical research data on the establishment of relationships between different levels of the socio-psychological condition of students in a group and the predominant types of relationships between students are presented.*

**Key word:** *individuality, social environment, psychological factors, interpersonal relations.*

**Introduction:** Currently, social psychology is of great interest in the study of student groups in the system of higher professional education. Researchers emphasize the high relevance of these groups for its participants, especially the importance of interpersonal relationships within the group [1]. Each person who is a subject of interpersonal relations enters as a system of interpersonal relations, orientations, and expectations determined by the joint activities of people and the content of their communication. in various social formations, including small social groups. Relationships in small social groups affect the effectiveness of joint activities, the nature of the communication process and are characterized by selectivity and emotional tones [5].

**Analysis of literature on the topic.** Research on the psychological study of student group status has been conducted overseas and in the United States. Galina Mikhailovna Andreyeva is a Soviet and Russian social psychologist and sociologist who defines a group as a person whose subjects are united by certain common features, including the nature of joint activities. Artur Alexandrovich Rean is a Russian psychologist and Yakov Lvovich Kolominsky. The data obtained in social psychology do not create a complete picture of determining status differences. The characteristics of students as subjects of communication can be interpreted from the point of view of the social state of development. The student period is characterized by a change in leading activities, a change in social status, and the entry of young people into a new social role. G.M. Andreeva [6] defines a group as a person whose subjects are united by certain common characteristics, including the nature of joint activities.

**Research methodology.** Problems of groups and joint activities are traditionally considered in social psychology [1]. But many issues, including the problem of the interaction mechanisms of the individual and the group, require further research. One of the important characteristics of interpersonal interaction is the position of a person in a group or status, which means the position of a person in the system of interpersonal relations and the measure of his "psychological acceptability" by group members. It can be considered as a fairly objective indicator of the success of a person's communicative activity. Ya.L. Kolominsky [1] defines status as an integral concept, which includes both objective parameters, for example, a person's position in the intragroup structure, and a subjective reflection of his own position, reflected in different degrees. Thus, in modern social psychology [1,] status is considered as the place of the subject in the system of interpersonal relations, which determines his rights, obligations and certain privileges in the group. It is common to distinguish between business leadership and emotional leadership. The role of the instrumental "business" leader consists of actions aimed at solving the tasks set for each participant and the entire group, and the role of the emotional leader is related to the emotional aspects of the group's relationships.

The problem of individual status in peer groups is understudied in this important stage, such as "student age", which is more studied by researchers of child development, adolescence and young adulthood. The characteristics of students as subjects of communication can be interpreted from the point of view of the social situation of development. The student period is characterized by a change in leading activities, a change in social status, and the entry of young people into a new social role. Adolescence is a special life stage that mediates a person's transition to adulthood. A student who has started an independent life is essentially not independent, he is often economically and psychologically dependent on his parents. Such a gap between the official beginning of social maturity and its actual "non-beginning" is a serious contradiction of this period of development. Student age is a stage for a person when this contradiction is eliminated, active direction and the development of new social functions take place. Staying in the status of a student at a higher educational institution teaches the development of new competencies and new behavioral strategies. contains z. They are often associated with dominant, independent behavior. Students are characterized by a desire to control everything that happens around them in communication, to influence what others do, feel or think about them. They do not want to accept the influence of other people and obey them. characterized by the intensity of interpersonal interaction and the expansion of the social circle. Informal communication that optimizes the emotional state of a person and helps in difficult life situations is especially important for students. The need for recognition, self-respect and self-acceptance is clearly expressed . Reference groups have a huge impact on students. A study by N.D. Tvorogova [4] showed that the level of importance of the group in which they are included is very important for students. The influence of information groups is especially great in relation to the satisfaction of basic needs for students: avoiding failure, maintaining a high position in the group, self-realization and recognition of the individual by other members of the group. avoid conflict between assessments, the need for achievement, high status, group prestige, belonging and acceptance needs. The situation of social development in which students find

themselves is very democratic, where spontaneity and sincerity are encouraged. The university system is more democratic than the school system, and the status of a student is more independent than that of a school student. At the same time, the role of the subject in the system of interpersonal relations has a strong influence on the development of the student's personality. let's turn to the research data of Drozdova E.V. [5], where, among others, the task of establishing relationships between different levels of the socio-psychological condition of students in a group and the dominant types of students' relationships with each other was set. A sociometric procedure was used to determine the level of expression of different socio-psychological conditions of students in the group. The reliability of the obtained results was ensured by using a number of mathematical statistical methods, including the r-Spearman correlation coefficient. The status of "psychotherapeutic" was determined based on the criterion "Which member of your group would you turn to for advice when solving an important life problem?" The degree of expression of each type of socio-psychological condition was determined based on the sum of the accepted choices. Sociometric indices were calculated for each type of socio-psychological condition for each group member. Since the quantitative structure of the groups participating in the study was different, the socio-psychological condition was determined not by the absolute number of elections, but by individual sociometric indicators. Sociometric status indices of group members were calculated separately for all three types of socio-psychological status. Then, in the group of students participating in the study, the average value of the indices for the three types of status was determined, and the general index of the socio-psychological status was determined. According to the research objectives, students with high, medium and low socio-psychological status were identified using the sociometric procedure. identified: emotional, business and "psychotherapeutic". Indicators of the socio-psychological condition of the students in the group by all types and the general index of the socio-psychological condition in the group were interpreted as follows: those who received an index of less than 0.10 are of low status,

those who received an index from 0.10 to 0.20 are average status, indices were classified from 0.30 to higher status. A student in a group.

**Conclusion:** the analysis of socio-psychological factors affecting the state of the individual in the student group will be useful for the activities of the university's psychological services in the process of developing recommendations for creating favorable conditions for students' adaptation at different stages. training, to optimize the activity of the student group, to optimize the access of the individual to the group, which allows for more effective implementation of educational functions in the profession of vocational education.

### LIST OF USED LITERATURE

1. Коломинский Я.Л. *Социальная психология взаимоотношений в малых группах*. М.: АСТ, 2010. 448 с.
2. Краснова В.В., Холмогорова А.Б. *Социальная тревожность и студенческая дезадаптация / Психологическая наука и образование*. 2011. №1. С. 140-150.
3. Сачкова М.Е. *Статусные отношения в подростковых учебных группах / Вопросы психологии*. 2006. №4. С. 58–58.
4. Творогова Н.Д. *Экспериментальное изучение социальной перцепции в процессе общения студентов в учебной группе // Вопросы психологии*. 1981. № 4. С. 119-123. *Инженерный вестник Дона, №4 (2014) ivdon.ru/ru/magazine/archive/n4y2014/2698* © Электронный научный журнал «Инженерный вестник Дона», 2007–2014
5. *Психология. Словарь*. / Под ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. М., 1990. 494 с.
6. Донцов А.И. *Социальная психология групп. / Вестник Московского ун-та. Сер.14. Психология*. 1997. №4. С. 17-25.
7. Haydarova, S. S. (2024). *THE ROLE OF STATUS IN THE DEVELOPMENT OF A STUDENT'S PERSONALITY. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 123-125.*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10783513>

## OILADA MUOMALA MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Choriyeva Sarvinoz Abdirashidovna**

Termiz Davlat Universteti Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada oilada muomala madaniyatini oilaviy munosabatlarda shakllanishi va ota-onalarning muomala madaniyatidagi o‘rni, farzandlarda nutq madaniyati emotsional holatlarni bayon qilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *muomala, madaniyat, oila, o‘smir, munosabat, farzand, muloqot, psixologiya, emotsional holat.*

Oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bu oila a‘zolarining bo‘sh vaqtini tashkil qilish, har bir shaxsning xususiyatidan kelib chiqqan holda rejalashtirish, goho sayr uyushtirish, soya-salqin joylarga safarga chiqish, birgalikda oila davrasida madaniy xordiq chiqarish, xo‘jalik yumushini bajarish va boshqalardir. Oila a‘zolarining har biri teng huquqqa ega ekanligini nazarda tutish, shuning bilan birga o‘ta erk berib yubormaslikni diqqat markazidan chiqarmaslik zarur. Bayram kunlarini nishonlash ham oqilona, odilona hal qilinishi oilada iliq ruhiy iqlimni vujudga keltiradi. Shunga qaramasdan, oilada hamisha hamjihatlik, ahillik hukm suravermaydi, goho ziddiyatlar, janjalli holatlar yuzaga kelib turadi. Lekin bu ziddiyatlarning mohiyatiga qarab tezroq bartaraf etish lozim. Psixolog olimlarning fikriga ko‘ra:” Oilaviy ziddiyat va janjallar ahloqiy, moddiy, ma‘naviy, aqliy, his-tuyg‘u negizida vujudga kelishi mumkin. Hozirgi kunda janjallar ko‘proq moddiy va ma‘naviy ruhiy omillar zamiridan chiqib kelmoqda. Har bir inson mehnat qilib turmush kechirish imkoniyatiga ega,

shuning uchun o'zgalarga tobe bo'lish hissi qarshilik qilish turtkisini namoyon qiladi. Hozirgi davrda oila buzilishi hollari ko'payib bormoqda, tirik yetimlar safi ortmoqda, qarovsiz farzandlar ko'lami kengaymoqda Oilada mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish (ba'zan og'irliklar kelin zimmasiga yuklatiladi) ayni muddaodir. Ichkilikbozlikka, og'irlikka, bekorchilikka, haromtamoqlikka qarshi o't ochish, tartibli kurash olib borish shart. Yoshlarni qiyinchilikni yengishga, o'zgacha shartsharoitga ko'nikishga bolalikdan o'rgatib borish lozim va hokazo. Hozirgi davrda jamoatchilikni quyidagi dolzarb muammolar tashvishga solmoqda. Oilada o'g'il-qizlar kimlar tomonidan tarbiyalanayotirlar va ular qanday ruhda, maromda tarbiya olmoqdalar? Oilaning tarbiya ishi rejali va tartibli olib boriladimi? Ta'lim oluvchilar ko'z o'ngida ota-ona, katta yoshdagi qarindoshurug'lar, tug'ishganlar qanday darajadagi obro'ga egalar? Oila tarbiyasida otaona o'rtasida birlik, umumiylik mavjudmi? Ta'lim muassasalarda qo'llanilayotgan axloqiy tarbiya vositalari va shakllari qanday tadbiiq etilmoqda? Oilada rag'batlantirish va jazolash metodlaridan qay yo'sinda foydalanilmoqda va shu kabilar. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarda oila a'zolarining asab sistemasi (uning kuchi, muvozanati, ildamligi, beqarorligi) temperamenti (uning xolerik, sangvinik, flegmatik toifalari), g'oyaviy maslagi (uning qiziqishi, his-tuyg'usi, ideali, e'tiqodi, dunyoqarashi, shaxsiy pozitsiyasi), axloqiy xislati, diqqati (uning kuchi, tarqoqligi, parishonxotirligi,ziyrakligi), xotirasi, irodasi (mustaqilligi, qatilyligi, dadilligi, mardqo'rqmasligi), nutqi (mazmunli, mantiqli, ohangi, sur'ati, dag'al va yumshoqligi), emosional ichki kechinmalari (kayfiyati, ehtirosi, zo'riqishi, jo'shqinligi, qursligi, achchiqlanishi, xursandligi) kabi ruhiyat va ma'naviyat jihatlarini hisobga olgan holda joriy qilish muammolari ham kishilarni juda qiziqtiradi. Yurtimizning nufuzli psixologlarning ta'kidlashicha: Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tuzilishini taxminan ushbu tarzda tushuntirib bersa bo'ladi: 1) buva va buvi hamda oilaning qolgan barcha a'zolari aloqasi; 2) ota-onaning o'zaro munosabatlari; 3) ota-ona va farzandlar orasidagi muloqot; 4) farzandlarning o'zaro munosabatlari tartibi; 5) kelinning barcha oila a'zolari bilan munosabatlari; 6) kelinlarning (ovsinlar) o'zaro



